

**SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA XORIJIY TILDA
GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI
(INGLIZ TILI MISOLIDA)**

Hotamova Iroda Ibrohimovna,

Navoiy davlat universiteti PhD tadqiqotchisi

Email: Xatamova@nspi.uz

ORCID ID: 0009-0003-7103-0266

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun sun'iy intellekt texnologiyalari asosida xorijiy tilda gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model va metodikaning samaradorligi tajriba va nazorat guruhlarida misolida matematik-statistik usullar asosida baholandi. Olingan natijalar sun'iy intellekt vositalari orqali tashkil etilgan mustaqil ta'lim talabalarining nutqiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xorijiy til, gapirish ko'nikmasi, nutqiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, tajriba-sinov.

Annotation. This article analyzes the results of experimental research aimed at developing foreign language speaking skills among higher education students through the use of artificial intelligence technologies. In the course of the study, the effectiveness of the developed model and methodology was evaluated using mathematical and statistical methods based on data from experimental and control groups. The results indicate that independent learning organized through artificial intelligence tools is highly effective in developing students' communicative and professional competencies.

Keywords: artificial intelligence, foreign language, speaking skills, communicative competence, independent learning, experimental study.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish xorijiy tillarni o'rganish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirishda sun'iy intellekt asosidagi vositalar samarali hisoblanadi [3; 50–65-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida talabalarning xorijiy tilda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari ilmiy-ijodiy metodika asosida olib borilib, unda tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayanildi.

Tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba-sinov ishlari ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki

bosqichda (aniqlovchi va izlanuvchi) talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasi va nutqiy kompetensiyasining mavjud holati diagnostika qilindi hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Yakuniy bosqichda (shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi) esa ishlab chiqilgan model va metodika asosida mustaqil ta'lim jarayoni tashkil etilib, talabalarning nutqiy faolligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar amalga oshirildi.

Natijalar va tahlil. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalarning ishonchliligini aniqlash maqsadida matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari tajriba va nazorat guruhlarida talabalarning kasbiy hamda nutqiy kompetensiyasining shakllanganlik darajasi bo'yicha solishtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni tajriba guruhidagi talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Xususan, tajriba guruhidagi talabalarning kasbiy va nutqiy kompetensiyasi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha **13% ga yuqori** ekanligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar tadqiqotda qo'llanilgan model va metodikaning samaradorligini, shuningdek, olingan natijalarning ishonchli va asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan model talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv xorijiy til ta'limida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge, 2015.
2. Warschauer M. Technology and Language Learning. Oxford, 2018.
3. G'ofurov B.S. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2020.
4. Karimova D.K. Sun'iy intellekt asosida mustaqil ta'lim metodikasi. 2022.
5. Ismoilov A.A. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish asoslari. Toshkent, 2021.